

## TAQLID VA UNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

**Xudayberganova Dildora Kulmamatovna**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti*

*O'zbek filologiyasi fakulteti Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası  
katta o'qituvchisi, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Omonboyeva Laylo Madrasul qizi**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti  
Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** *O'zbek tilida so'z turkumlari va ularning tasniflanishi bo'yicha o'rganiladigan va izlanishlar olib borilishi zarur bo'lgan nuqtalar sirasiga so'z turkumlari ham kiradi. So'z turkumlari borasida olimlarning muhokama va muzokaralarga sabab bo'luvchi masalalardan biri bu taqlid so'z va uning aynan so'z turkumlarining qaysi bir guruhiga kiritilishi to'g'risidagi qarashlari hisoblanadi. Taqlid so'z turkumining yasashga asos bo'lishi, o'ziga xos morfologik xususiyatlari va paradigmalari, turlari va UGMsi kabi jihatlari tasnif qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *taqlid so'zlar, tovushga taqlid, holatga taqlid, derivatsiya, yasashga asos qism, affiksatsiya, sodda, juft, takror taqlidlar.*

### KIRISH

Har bir tilda va uning badiiy qiymatini belgilashda davlat tili maqomining berilishi, ichki imkoniyatlarining kengligi, mavjud so'z turkumlarining aniq ilmiy nazariyalar asosida tasniflanganligi, har bir til bo'yicha bildirilayotgan nazariya va qarashlarning yakdillik asosida tasniflanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilida so'z turkumlari 3 guruhga bo'lib o'rganilgan. Ularda taqlid so'zlar alohida olingan so'z turkumi sifatida qaraladi. Taqlid so'zlarning grammatik xususiyatlari va ularning tasnifi bo'yicha ko'plab tilshunos olimlarning nazariya va qarashlari har xil bo'lib, ba'zi tilshunos olimlar taqlidlarni mustaqil so'z turkumi qatoriga kiritilishi zarurligini ilmiy asoslab berishsa, ba'zi tilshunoslar bu nazariyalarni ma'qullamaydi. Taqlid so'zlarning tasnifi va grammatik xususiyatlari bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy nazariya va qarashlarni tavsif qilar ekanmiz, o'zbek tili so'z turkumlari borasidagi bilimlarni amaliyotga tatbiq qilamiz.

Taqlid so'zlar eng ko'p fe'l so'z turkumini yashashga asos bo'ladi, nafaqat fe'l, balki boshqa so'z turkumlari ya'ni ot so'z turkumini yashashga asos vazifasini aynan taqlid so'zlar bajaradi. Taqlid so'zlar lug'aviy ma'no ifodalashi barobarida o'z ichida ikki ma'noviy guruhga ajratiladi. Mustaqil so'z turkumi hisoblanuvchi olmoshlar lug'aviy ma'no ifodalay olmasligi, derivatsion qo'shimchalar orqali kam yasashga asos vazifasini bajarishi barobarida, mustaqil so'z turkumi qatoridan joy olgan. Shu o'rinda aslida qaysi bir so'z turkum, ya'ni olmosh va taqliddan qaysi biri mustaqil so'z turkumlari

qatoriga munosib degan savol tug'iladi. Taqlid so'zlar lug'aviy ma'noga egalik, eng ko'p so'z yasashiga asos bo'lishi bilan mustaqil so'z turkumlari qatoriga kiritish ham mumkin. Buni ba'zi tilshunos olimlar (B.Mengliyev, R.Sayfullayevlar) mustaqil ma'noga ega so'z turkumi sifatida qarashadi. Bu nazariyani yoqlamaydigan tilshunoslar esa taqlidlarni alohida olingan so'z turkumi sifatida (ba'zi manbalarda oraliqdagi so'z turkumi sifatida tavsiflanadi) olishni ma'qullaydilar.

### ASOSIY QISM

1. Taqlid so'z turkumi haqida umumiy tushuncha.

Tovushlar inson va tabiat tovushlariga bo'linadi. Inson tovushlari nutq a'zolarining harakati asosida paydo bo'lsa, tabiat tovushlari, odatda, narsalar bir-biriga tegishi, urilishi, qisilishi, siqilishi, buralishi kabilar asosida paydo bo'ladi. Shuningdek, hayvon-jonivorlarning tovushi: itlarning vovullashi, mushukning miyovlashi, qushlarning sayrashi, otning kishnashi, qo'ylarning ma'rashi, eshaklarning hangrashi kabilarga taqlid qilish asosida ham tilimizda bir qancha so'zlar paydo bo'ladi. Bunday so'zlar tilshunoslikda taqlid so'zlar deb yuritiladi. Taqlid so'zlar, shuningdek, jonli-jonsiz narsalarning holatiga taqlidni bildiruvchi so'zlardir. Shunga ko'ra ikki turga bo'lib o'rganiladi: 1) Tovushga taqlid so'zlar. 2) Holatga taqlid so'zlar.

2. Tovushga taqlid. Ma'lumki, taqlid so'zlarga doir ko'pgina ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan, bir nechta guruhlariga ajratiladi: U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev, A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova, A.Anorbekova, Sh.Mirzayeva, R.Sayfullayeva kabi tilshunoslarning asarlari bunga misol bo'ladi. Shu ishlar asosida taqlid so'zlarni keng doirada tasniflab o'tamiz. Tovushga taqlid so'zlar tarkiban

a) kishilarning harakat-holatidan paydo bo'lgan tovushlarga taqlid qars-qars, afshu, chalp-chulp, duk-duk, shalop, shalop-shulup. M., *Nazira yuragining duk-dukini hattoki shu shovqinda eshitdi;*

b) chaqaloqlarning yig'lash, uxlash paytida paydo bo'ladigan tovushlarga taqlid bildiruvchi so'zlar: inga-inga, pish-pish. M., *Chaqaloqning inga degan tovushi butun olamni jonlantiradi;*

d kishilarning quvonchi, qayg'usini ifodalovchi tovushlarga taqlid bildiruvchi so'zlar: qah-qah, pix-pix, hingir-hingir, ho'ng-ho'ng. M., *Do'stlarning qah-qah ovozi butun davrani uyg'otdi;*

e) kishilarning so'zlashi, baqir-chaqirini ifodalovchi tovushlarga taqlid so'zlar: pichir-pichir, qiy-chuv, g'o'ng'ir-g'o'ng'ir, shivir-shivir, bidir-bidir, vag'ir-vug'ur, g'ivir-shivir, qiy-chuv. M., *Birdaniga qiy-chuv boshlanib ketdi;*

f) hayvonlar tovushiga taqlid bildiruvchi so'zlar: miyov, vov, uv, irr, maa, vaq-vaq, mee, mo'o', dupir-dupir. M., *Qishloqning yozgi tunlari qurbaqaning vaqvaqi bilan yanada yoqimli tuyulardi;*

g) hasharotlar tovushiga taqlid bildiruvchi so'zlar: chirr-chirr, vish, viz-viz, g'uv-g'uv. M., *Asalarilarning vizillashi quloqni karaxt qiladi;*

h) qushlar tovushiga taqlid bildiruvchi soʻzlar: qagʻ-qagʻ, pit-pildiq, ku-ku, kak-ku, chugʻur-chugʻur, parr. M., *Bolalar chumchuqlarning chugʻur-chugʻuriga mahliyo edi*;

j) parrandalar tovushiga taqlid bildiruvchi soʻzlar: gʻa-gʻa, qu-qu, chip-chip, qa-qa-qa-qaq. M., *Tashqaridan joʻjalarning chi-chiyi eshitilib turardi*;

k) tabiat hodisalari va tabiiy ofatlarning tovushiga taqlid bildiruvchi soʻzlar: gumbur-gumbur, biliq-biliq, chars-churs, gʻuv-gʻuv, shitir-shitir, shildir-shildir, baqir-buqur, gʻuv, chirs-chirs, chilp-chilp, gʻarch-gʻurch, choʻlp-choʻlp, vaqir-vaqir. M., *Shamolda barglarning shitir-shitiri eshitiladi*;

l) jonsiz predmetlarning tovushiga taqlid bildiruvchi soʻzlar: gʻiyq, duk, qars-qars, sharaq, taraq, tap, tars, tars-turs, tars-tars, chirs, qart-qurt, gʻarch. M., *Kimdir eshikni tars etib ochdi va uyga kirdi*;

m) narsalarning bir-biriga urilishi natijasida hosil boʻladigan tovushga taqlid bildiruvchi soʻzlar: taq-taq, qars-qars, sharaq, taqir-tuqur, qars-qurs, gurs, taraqa-turuq, chirs, tasira-tusir, M., *Qorongʻida derazaning taqir-tuqiri xonadagilarni vahimaga soldi*;

n) texnika va texnik asboblarning tovushiga taqlid bildiruvchi soʻzlar: bong-bong, chiq-chiq, taka-tum-tak. M., *Jimjitlik choʻkkan, hattoki soatning chiq-chiqi mixni qoqayotgan bolgʻaning ovozidek tuyulardi*;

o) transport vositalarining tovushiga taqlid soʻzlar: di-dit, gʻuuuv, bip-bip, shaqa-shaq, vuuuuu (poyezd), tiqir-tiqir, trrr-trr-trrr. M., *Poyezdning shaqa-shaq ovozi meni doimgidek allalab qoʻydi*.

Holatga taqlid soʻzlarning tasnifi: 3. Holatga taqlid:

a) kishilarning holatiga taqlid bildiruvchi soʻzlar: dir-dir, alang-jalang, lang, zirq-zirq, loʻq-loʻq, shart-shurt, yum-yum (yigʻlamoq), sim-sim (ogʻrimoq), gʻij-gʻij (aql), gʻing-ping, zir-zir, shartta-shartta, shuv, moʻlt, dik-dik, shov-shuv, pish-pish, hang-mang, lop, gʻivir. M., *U yum-yum yigʻladi*;

b) kishilarning xususiyatlarini ifodalovchi holatga taqlid bildiruvchi soʻzlar: jilpang-jilpang, jirt-jirt, qilpang-qilpang, lik-lik, liking-likang. M., *Qizlarning jilpang-jilpang qilishi judayam yomon koʻrinardi*;

d) harakatning holatini ifodalovchi holatga taqlid bildiruvchi soʻzlar: pildir-pildir, lapang-lapang, gir-gir. M., *Nozima onasining tepasida gir-gir aylanardi*;

e) ob-havo taʼsiri natijasida paydo boʻladigan holatga taqlidni bildiruvchi soʻzlar: dagʻ-dagʻ, dir-dir, qalt-qalt, lov-lov, jiz-jiz. M., *Sovuqdan tanamiz dagʻ-dagʻ qaltirardi*;

f) yorugʻlik, nur taʼsirida paydo boʻluvchi holatga taqlid bildiruvchi soʻzlar: lip-lip, milt-milt, jimir-jimir, yalt-yalt, yalt-yult, yaraq, yal-yalt. M., *Chirogʻimiz lip etib oʻchib qoldi*;

g) tabiat hodisalarining holatiga taqlid bildiruvchi soʻzlar: guppa-guppa, guv-guv, gup, jimir-jimir, sharros. M., *Birdaniga yomgʻir sharros quydi*;

h) oʻsimliklarning holatiga taqlid bildiruvchi soʻzlar: gʻuj-gʻuj, gʻir-gʻir, hil-hil, duv-duv. M., *Mevalar duv-duv toʻkildi*.

Xulosa. Taqlid soʻzlar shaxslarning, jonli-jonsiz narsalarning nutqi, harakat-holatlari asosida paydo boʻladigan soʻzlardir. Tilimizda nutqiy taʼsirchanlik, obrazlilikni oshirishda keng imkoniyatlar yaratadi. Semantik, pragmatik maʼno xususiyatlariga koʻra nutqda faol qoʻllaniladi.

Taqlid soʻzlarning soʻz turkumlari orasida muhim ahamiyat kasb etishini hisobga olgan holda, taqlid soʻzlarni ham mustaqil soʻz turkumlari doirasiga kiritish va mustaqil soʻz turkumi doirasida oʻrganish maqsadga muvofiq boʻladi. Sababi taqlid soʻzlar mustaqil soʻz turkumlari talablariga toʻliq javob beradi. Lugʻaviy maʼnoga egaligi, eng koʻp yasashga asos boʻlishini hisobga olgan holda taqlidlarni mustaqil soʻz turkumi doirasida yanada chuqur oʻrganilsa, uning nazariyalari yanada keng yoritib berilishi natijasida taqlid soʻz turkumining eng sermahsul va unumli soʻz turkumi ekanligining guvohi boʻlamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Eltazarov J.D. Soʻz turkumlari paradigmasidagi oʻzaro aloqa hamda koʻchish hollari. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensklopediyasi, 2006. – 134 b.
2. Isoqov Z. Oʻzbek tilida soʻz turkumlarining oʻzaro munosabati va unda tuklamalarning oʻrni. Fil.fan.nomz.diss.avtoreferat. – Fargʻona: 2005.
3. Qoʻngʻurov R. Oʻzbek tilida tasviriy soʻzlar. – T.: Fan, 1966. 143 b.
4. Xojiyev A. Oʻzbek tilida qoʻshma, juft va takroriy soʻzlar. – Toshkent: Fan, 1963. – 60 b.
5. U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – T.: Oʻzbekiston.1992. – 394 b.
6. A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. 2-kitob. – T.: Ilm ziyo. 2013. – 410 b.
7. A.Anorbekova, Sh.Mirzayeva. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – T.:Noshir. 2012. – 156 b.
8. R.Sayfullayeva va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – T.: 2009. – 257 b.